



UNIVERSITY
OF SCIENCE AND TECHNOLOGIES

TOWARDS A NEW ECONOMY, PEDAGOGY AND TECHNOLOGY

SCIENTIFIC ELECTRONIC
JOURNAL

ISSN 3060-5342
№2 (1) 2025



journal.usat.uz

ISSN 3060-5342

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
UNIVERSITY OF SCIENCE AND TECHNOLOGIES
SCIENTIFIC ELECTRONIC JOURNAL
«TOWARDS A NEW ECONOMY, PEDAGOGY AND TECHNOLOGY»
Volume 1 Issue 2 (2025)**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ,
НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
УНИВЕРСИТЕТ НАУКИ И ТЕХНОЛОГИЙ
НАУЧНЫЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
«К НОВОЙ ЭКОНОМИКЕ, ПЕДАГОГИКЕ И ТЕХНОЛОГИЯМ»
Том 1 № 2 (2025)**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FAN VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
«YANGI IQTISODIYOT, PEDAGOGIKA VA TEXNOLOGIYALAR SARI»
ILMIY ELEKTRON JURNALI
1-jild 2-son (2025)**

Bosh muharrir:

Xamdamov Anvar Norovich - rektor, PhD, dotsent

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Gaibnazarova Zumrat Talatovna - ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Muharrirlar:

Mamatova Dilnoza Bekpo‘latovna - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Kurbanova Farog‘at Subhonovna - magistr lingvist

Mas‘ul kotib:

Yo‘ldosheva Dilnoza G‘ayrat qizi

Web-administrator:

Musayev Jonibek Jambulovich

TAHRIRIYAT HAY‘ATI:

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI:

Gulyamov Saidaxrar Saidaxmedovich - iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Gulamov Abdulaziz Abdullayevich - iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Nosir - iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irisbekova Mavluda Narinbayevna - iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raxmanbayeva Roza Abduraxmanovna - iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shadiyeva Gulnora Mardiyevna - iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xankeldiyeva Guzal Sherovna - iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdullayeva Matluba Nematovna - iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Musayeva Dilnoza Dilshatovna - iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Jill J. McCluskey - PhD, professor, Vashington davlat universiteti, Pulman, AQSH

Mark Beattie - PhD, dotsent, Vashington davlat universiteti, Everett, AQSH

Guo Shuhong - iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Dalyan politexnika universiteti, Dalyan, Xitoy

Kelesbayev Dinmuxamed Nurmaxanbetovich - PhD, professor, Ahmad Yassaviy nomidagi Qozoq-turk universiteti, Turkiston, Qozog‘iston

Yakushenko Kseniya Valentinovna - iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Belarus milliy texnika universiteti, Minsk, Belarus

Shamardina Irina Aleksandrovna - iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Belarus milliy texnika universiteti, Minsk, Belarus

CONTENTS

08.00.00- ECONOMIC SCIENCES

Abdullaev Aziz. TRANSPORT POTENTIAL OF THE MEMBER COUNTRIES OF THE ORGANIZATION OF TURKIC STATES	18
Garakanidze Zurab, Gaibnazarova Zumrat. FORMING OF THE GAS SPOT MARKET	25
Davronov Istamkhuja. DIRECTIONS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE COMPETITIVENESS OF HOTEL SERVICES (using the example of the city of Bukhara)	38
Irisbekova Mavluda. CALCULATION OF THE EKONOMIC EFFICIENCY OF OPTIMIZATION OF THE MARKET OF TRANSPORT SERVICES ON THE BASIS OF MARKETING PRINCIPLES	46
Karapetyan Andrey. COORDINATION MECHANISMS AND STRATEGIC GUIDELINES FOR THE FORMATION OF THE COMMON SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL AREA OF THE CIS	56
Kilichov Mukhriddin. BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF ARCHITECTURAL HERITAGE AND TOURISM	66
Radjabov Odil. PROSPECTS FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF NATURAL OBJECTS USING THE EXAMPLE OF THE «ANCIENT AND ETERNAL BUKHARA» PARK IN BUKHARA	79
Ruziyeva Gulinoz. OPPORTUNITIES OF INCREASING THE EFFICIENCY OF SERVICE TO CONSUMERS THROUGH THE DIVERSIFICATION OF NATIONAL CRAFTSMANSHIP PRODUCTS IN THE BUKHARA REGION	89
Suleymanova Shoir, Abdukhakimova Aziza. GREEN SUKUKS: A NEW FORM OF SUSTAINABLE FINANCING IN UZBEKISTAN	103
Tojiqulova Sitora, Malikov Numonjon. THE IMPACT OF WTO MEMBERSHIP ON ATTRACTING FOREIGN DIRECT INVESTMENT TO CHINA: LESSONS FOR UZBEKISTAN	111
Khudoyarov Anvar, Saydazimova Shakhnoza. ANALYSIS OF THE STATE, PROSPECTS AND INTEGRATION OF UZBEKISTAN'S SERVICES MARKET INTO THE WORLD MARKET	122
Khaydarova Dilora. SIGNIFICANCE AND CHARACTERISTICS OF MEDICAL TOURISM	131

UDC: 640.41

JEL: Z32

**MEHMONXONA XIZMATLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BARQAROR
RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI (Buxoro shahri misolida)**

**DIRECTIONS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE
COMPETITIVENESS OF HOTEL SERVICES
(using the example of the city of Bukhara)**

**НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ
КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ГОСТИНИЧНЫХ УСЛУГ
(на примере города Бухары)**



Davronov Istamxo'ja Olimovich [0000-0002-1680-7437]

Buxoro davlat universiteti, "Turizm va mehmonxona xo'jaligi" kafedrası
o'qituvchisi

Davronov Istamkhuja Olimovich

Bukhara state university, Lecturer of the department «Tourism and hotel
management»

Давронов Истамхужа Олимович

Бухарский государственный университет, преподаватель кафедры
«Туризм и гостиничное хозяйство»

E-mail: i.o.davronov@buxdu.uz; **Phone:** +998934742826

Annotatsiya. Ilmiy maqolada, asosan, Buxoro shahri mehmonxonalari xizmatlarining raqobatbardoshligi va ularning barqaror rivojlantirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Ilmiy maqolaning dolzarbligi shundaki, mehmonxona xizmatlari turizm sohasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularning raqobatbardoshligi barqaror rivojlanishni ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shuningdek, ushbu tadqiqotda, Buxoro viloyati misolida, mehmonxona xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida mehmonxona biznesining ekologik va innovatsion jihatlari, xizmat ko'rsatish sifatining barqaror rivojlanishga ta'siri, hamda zamonaviy texnologiyalar orqali barqarorlikni ta'minlashning yo'nalishlari o'rganildi. Tahlil natijalariga asoslanib, Buxoro viloyatidagi mehmonxonalarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shu bilan birga maqola mehmonxona biznesi mutaxassislari, tadqiqotchilar va turizm sohasi rahbarlari olingan xulosalar orqali yanada boyitilgan.

Kalit so'zlar: raqobatbardoshlik, barqaror rivojlanish, texnologiya, mehmonxona xizmatlari, asosiy va qo'shimcha xizmatlar, mavsumiylik.

Abstract. The scientific article mainly analyzes the competitiveness of hotel services in the city of Bukhara and directions for their sustainable development. The relevance of the scientific article lies in the fact that hotel services are an important component of the tourism industry, and their competitiveness is a decisive factor in ensuring sustainable development. Also, this study analyzes strategies for increasing the competitiveness of hotel services using the example of the Bukhara region.

Within the framework of the study, the environmental and innovative aspects of the hotel business, the impact of service quality on sustainable development, and the directions of ensuring sustainability through modern technologies were studied. Based on the results of the analysis, practical recommendations will be developed to increase the competitiveness of hotels in the Bukhara region. At the same time, the article is further enriched by the conclusions of hotel business specialists, researchers, and tourism industry leaders.

Keywords: competitiveness, sustainable development, technology, hotel services, basic and additional services, seasonality.

Аннотация. В научной статье в основном анализируется конкурентоспособность гостиничных услуг города Бухары и направления их устойчивого развития. Актуальность научной статьи заключается в том, что гостиничные услуги являются важной составляющей туристической отрасли, и их конкурентоспособность является решающим фактором в обеспечении устойчивого развития. Также в данном исследовании анализируются стратегии повышения конкурентоспособности гостиничных услуг на примере Бухарской области. В рамках исследования были изучены экологические и инновационные аспекты гостиничного бизнеса, влияние качества обслуживания на устойчивое развитие, а также направления обеспечения устойчивости за счет современных технологий. По результатам анализа будут разработаны практические рекомендации по повышению конкурентоспособности гостиниц Бухарской области. Кроме того, статья обогащена выводами, сделанными специалистами гостиничного бизнеса, исследователями и руководителями туристической отрасли.

Ключевые слова: конкурентоспособность, устойчивое развитие, технология, гостиничные услуги, основные и дополнительные услуги, сезонность.

For citation: Davronov I.O. Directions of sustainable development of the competitiveness of hotel services (using the example of the city of Bukhara). Towards a new economy, pedagogy and technology. 2025; 2 (1): 38-45. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15594910>

Kirish. Global turizm sanoati o'sishi bilan mehmonxona xizmatlari bozori ham tobora keskin raqobatga yuz tutmoqda. Jahon Turizm Tashkiloti (UN Tourism) ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda xalqaro sayohatchilar soni 1,3 milliarddan oshdi va bu ko'rsatkich xizmat ko'rsatish sohalarining sifat va raqobatbardoshligini oshirish talabini yanada kuchaytirmoqda [20]. Xususan, O'zbekistonning qadimiy shaharlari qatorida Buxoro shahri ham o'zining boy madaniy va tarixiy merosi bilan global turizm xaritasida muhim o'rin egallaydi.

Turizm sanoati jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, mehmonxona xizmatlari uning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Xususan, O'zbekistonning turizm salohiyati yildan-yilga ortib bormoqda. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni 6,6 million kishiga yetgan, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib 8,2 mln nafar xorijiy turistlarni tashkil etdi. Bu esa 2023-yilga nisbatan 19,5% o'sishni

ko'rsatadi [11]. Ushbu o'sish fonida mehmonxona xizmatlarini barqaror rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Buxoro viloyati o'zining boy madaniy merosi va sayyohlik obyektlari bilan ajralib turadi. 2024-yilda viloyatga 5,7 milliondan ortiq xorijiy va mahalliy sayyoh tashrif buyurgan bo'lib, bu 2023-yilga nisbatan, 15% ko'proqdir [13]. Ammo hududdagi mehmonxona xizmatlari sohasida ko'plab muammolar, xususan, xizmat sifati va xodimlar malakasi yetishmasligi hali ham dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, xalqaro mehmonxona tarmoqlari bilan solishtirganda, mahalliy mehmonxonalarda xizmat ko'rsatish sifati, ekologik standartlarga mosligi va innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi bo'yicha ham ortda qolmoqda.

Buxoroning ulkan turizm salohiyati mavjud bo'lishiga qaramay, mehmonxona xizmatlari raqobatbardoshligi va ularning barqaror rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati tobora oshib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, Buxorodagi mehmonxona korxonalarining 42% dan ortig'i hali ham xalqaro standartlarga to'liq javob bermaydi.

Ushbu tadqiqot mehmonxona xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur bo'lgan strategiyalarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi - Buxoro viloyatidagi mehmonxona xizmatlarini barqaror rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirish yo'llarini aniqlashdan iborat. Maqolada quyidagi ilmiy savollarga javob izlanadi:

1. So'nggi yillarda Buxoro viloyatidagi mehmonxona xizmatlarining holati qanday?

2. Buxoro mehmonxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish uchun qaysi omillar muhim hisoblanadi?

3. Rivolangan xalqaro mehmonxonalar tajribasi va innovatsion yondashuvlar mahalliy mehmonxonalar uchun qanday ahamiyatga ega?

Ushbu tadqiqot natijalari Buxoro shahrining mehmonxona infratuzilmasini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qilishi kutilmoqda.

Adabiyotlar sharhi. O'zbekistonda mehmonxona biznesining rivojlanishiga hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. 2022-yil 28-sentabrda qabul qilingan "2022 - 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida mehmonxona biznesi uchun investitsion imtiyozlar joriy etilib, xorijiy investorlar uchun soliq yengilliklari taqdim etilgan [14].

Mehmonxona xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish bugungi global sharoitda dolzarb muammolardan biri bo'lib, ularning barqaror rivojlanishi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog'liqdir [17]. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, mehmonxona sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ekologik toza energiya manbalaridan foydalanish hamda xizmatlar sifatini doimiy ravishda oshirish raqobatbardoshlikni ta'minlovchi asosiy omillar sifatida shakllangan [18].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yilda O'zbekistonda 1500 dan ortiq mehmonxona faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularning qariyb 40 foizi Buxoro, Samarqand

va Xiva kabi yirik turistik shaharlarda joylashgan [11]. Xususan, Buxoro viloyatidagi mehmonxonalarning o'rtacha bandlik darajasi 65 foizni tashkil etgan bo'lib, bu natija hududdagi sayyohlar oqimi va mavsumiy talab dinamikasi bilan bevosita bog'liqdir [12].

Dunyo bo'ylab mehmonxona sektorining rivojlanishi turli omillar bilan belgilanadi. Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, mehmonxona xizmatlarining barqarorligini ta'minlash uchun quyidagi asosiy yo'nalishlar muhim hisoblanadi:

1. Ilg'or va so'nggi innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish - mehmonxona xo'jaligida avtomatlashtirilgan tizimlarning joriy etilishi xizmatlar sifatini oshirish, mijozlar ehtiyojlariga tez va aniq javob berish hamda operatsion xarajatlarni optimallashtirish imkonini beradi. Bunday texnologik yechimlar xizmat ko'rsatish jarayonlarini soddalashtirib, inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytiradi va resurslardan samarali foydalanish orqali umumiy faoliyat rentabelligini oshiradi. [6].

2. Ekologik barqarorlik tamoyillari - zamonaviy xalqaro mehmonxonalar energiya samaradorligini oshirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash strategiyalarini faol ravishda joriy etmoqda. Bunday yondashuv, nafaqat, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradi, balki mehmonxonalarning ekologik imidjini mustahkamlab, ularning raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qiladi [8].

3. Mijozlar tajribasini yaxshilash - sifatli xizmat ko'rsatish va shaxsiylashtirilgan xizmatlar taklif etish, mehmonxonalar raqobatbardoshligini oshirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Individuallashtirilgan yondashuv mehmonlarning qoniqish darajasini oshirib, ularning sodiqligini mustahkamlashga va ijobiy imijni shakllantirishga xizmat qiladi, bu esa o'z navbatida, bozordagi ustunlikni ta'minlashga yordam beradi [9].

Buxoro viloyatidagi mehmonxona xizmatlarining barqaror rivojlanishi uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

- Xalqaro standartlarga mos infratuzilmani rivojlantirish - mehmonxonalar raqamlashtirish va zamonaviy menejment tizimlarini joriy etish orqali xizmat sifatini oshirishi zarur.


- Mavsumiy talabni tahlil qilish va muvofiqlashtirish - Buxoro mehmonxonalari ko'pincha bahor va kuz fasllarida yuqori talabga ega bo'lib, qishki turizmni rivojlantirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish zarur (narx siyosati, turli xildagi shaxsiylashtirilgan xizmatlar to'plami).

- Ekologik tamoyillarga mos biznes modelini shakllantirish - mehmonxona sanoatida yashil texnologiyalardan foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash tizimini takomillashtirish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot mehmonxona xizmatlarining raqobatbardoshligini barqaror rivojlantirish tamoyillarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, aralash tadqiqot metodologiyasi (mixed-methods research) asosida olib boriladi. Tadqiqot doirasida miqdoriy va sifatli yondashuvlar qo'llanilib, statistik ma'lumotlar va ekspertlar fikrlari asosida aniq xulosalar chiqariladi.

Rasmiy statistik ma'lumotlar - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va Turizm qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan so'nggi hisobotlar asosida tahlil qilindi. So'rovnoma (survey) natijalari - Buxoro viloyatidagi 55 ta mehmonxonaning menejerlari va mijozlari orasida so'rov o'tkazildi. Jami 250 nafar respondent ishtirok etdi, ulardan 110 nafari mahalliy sayyohlar, 85 nafari xorijiy sayyohlar va 55 nafari mehmonxona menejerlari edi. Ekspert intervyulari - Mehmonxona xizmatlari bo'yicha 10 nafar turizm sohasi mutaxassislari bilan chuqur suhbat o'tkazildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Buxoro viloyatidagi mehmonxona xizmatlari o'sish tendensiyasiga ega bo'lsa-da, raqobatbardoshlik bo'yicha ayrim muammolar mavjud. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda Buxorodagi mehmonxonalar soni 212 taga, 2023-yilda esa 198 taga yetgan. Bu 6.6 % o'sishni anglatadi. Shu bilan birga, mijozlar qoniqish darajasi 70% bo'lib, bu xalqaro standartlarga (85-90%) nisbatan past ko'rsatkich hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Buxoro viloyatidagi mehmonxonalar soni [13]

Olib borilgan tadqiqot natijasida mehmonxona xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi asosiy muammolar aniqlangan:

- narx siyosati va servis sifati o'rtasidagi tafovut - mahalliy mehmonxonalar narx siyosati bo'yicha xorijiy mehmonxonalarga, nisbatan, raqobatbardosh afzalliklarga ega bo'lsa-da, xizmat sifati ko'rsatkichlari jihatidan hali ham yetarli darajada rivojlanmagan. Narx va xizmat sifati o'rtasidagi mavjud tafovut, ayniqsa, xalqaro sayyohlar ehtiyojlari va kutgan darajalariga mos kelmasligi, mahalliy mehmonxonalarning bozordagi raqobatbardoshligini cheklab qo'yimoqda;

- mehmonxonalarda ekologik barqarorlik quyi darajada - mehmonxona sektorida ekologik barqarorlik tamoyillarining tatbiq etilishi past darajada bo'lib, mavjud

mehmonxonalar orasida xalqaro yoki milliy ekologik sertifikatga ega korxonalar ulushi atigi 24 foizni tashkil etadi. Bu holat barqaror rivojlanish strategiyalarining to'liq joriy etilmagani va ekologik talablarning yetarlicha e'tiborga olinmayotganini ko'rsatadi;

- innovatsion texnologiyalar kam joriy etilgan - olib borilgab so'rovnoma natijalariga ko'ra, mehmonxonalarda innovatsion texnologiyalar, xususan avtomatlashtirilgan xizmat ko'rsatish tizimlari nisbatan kam joriy etilgan. Mehmonxonalarning faqat 45-50% foizida bunday tizimlar qo'llaniladi, bu esa texnologiyalarning to'liq potensialidan foydalanilmasligi va sohadagi raqobatbardoshlikni oshirish uchun zarur bo'lgan innovatsion yondashuvlarning yetishmasligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mehmonxonalarning raqobatbardoshligiga quyidagi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatadi:

1. Xizmat sifati va mijoz qoniqish darajasi. So'rov natijalari bo'yicha, xizmat sifati indeksi va mijozlarning mehmonxonaga qayta kelish ehtimoli o'rtasida $r = 0.76$ ($p < 0.015$) miqdorida yuqori ijobiy bog'liqlik mavjud. Bu shuni anglatadiki, xizmat sifati yaxshilash mehmonxonalar daromadining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

2. Narx siyosati va mijozlar qarori. Regressiya tahlili natijalariga ko'ra, mehmonxonalarning narx siyosati va mijozlarning qarori o'rtasida $\beta = -0.43$ ($p < 0.07$) koeffitsiyent aniqlangan. Ya'ni, narxlar oshgani sari mehmonlar boshqa alternativ variantlarni ko'rib chiqish ehtimoli oshadi.

3. Ekologik barqarorlik va xalqaro standartlarga moslik. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xalqaro ekologik standartlarga moslashgan mehmonxonalarning mijoz jalb etish ko'rsatkichi 18-22% yuqori bo'lib, ayniqsa, xorijiy turistlar orasida e'tiborli ekani aniqlandi[5].

4. Innovatsiyalar va avtomatlashtirish darajasi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy texnologiyalarni joriy etgan mehmonxonalarning o'rtacha daromadi an'anaviy usullar bilan ishlovchilarga nisbatan 23% ko'proq bo'lgan [2]. Ayniqsa, onlayn bronlash tizimlarining samaradorligi yuqori ekani aniqlangan.

Yuqoridagi natijalarga asoslanib, mehmonxonalarning raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni tavsiya etish mumkin:

- Xizmat sifati oshirish - mehmonxona xodimlari uchun muntazam ravishda o'quv dasturlarini tashkil etish.

- Narx siyosatini diversifikatsiya qilish - har xil darajadagi turistlar uchun mos variantlarni taklif qilish.

- Ekologik standartlarga moslashish - "Yashil sertifikat" olish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish.

- Innovatsion texnologiyalarni joriy etish - avtomatlashtirilgan xizmat ko'rsatish tizimlarini kengaytirish.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Buxoro viloyatidagi mehmonxona xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish va ularning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun bir qator strategik yondashuvlar talab etiladi. Hozirgi vaqtda viloyatdagi mehmonxona sektori sezilarli o'sishga erishgan bo'lsa-da, xalqaro standartlarga mos keladigan xizmat sifatiga erishish, mijozlarning talablariga javob

berish hamda ekologik barqarorlik tamoyillarini qo'llash dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, mehmonxonalarning barqaror rivojlanishi va ularning raqobatbardoshligini oshirish uchun sifat, innovatsiya, ekologik mas'uliyat va moslashuvchan boshqaruv tamoyillariga e'tibor qaratish lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, agar yuqoridagi chora-tadbirlar amalga oshirilsa, Buxoro viloyati mehmonxona sektori xalqaro bozorda yanada raqobatbardosh bo'lishi va sayyohlarni jalb qilish darajasi oshishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Buxoro viloyati turizm boshqarmasi (2025). Buxoro viloyatida mehmonxona xizmatlari holati bo'yicha hisobot. Buxoro: Davlat statistika agentligi.
2. Creswell J.W., Plano Clark V.L. (2018). Designing and conducting mixed methods research (3rd ed.). SAGE Publications.
3. Davlat statistika qo'mitasi. (2023) O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining rivojlanish ko'rsatkichlari. <https://stat.uz>
4. Duric Z., Potočnik Topler J. (2021) The role of performance and environmental sustainability indicators in hotel competitiveness. Sustainability, 13(12), P. 6574
5. Field A. (2018) Discovering statistics using IBM SPSS statistics (5th ed.). SAGE Publications
6. Jones P., Hillier D., Comfort D. (2022) Sustainable hospitality and tourism: a global perspective. Springer.
7. Jovanović S. (2019) Green hotels as a new trend in the function of sustainable development and competitiveness improvement. Economics of Sustainable Development, 3(1), 1-7.
8. Kaplan R.S., Norton D.P. (2020) The balanced scorecard: Translating strategy into action. Harvard Business Review Press. Harvard
9. Kotler P., Keller K.L. (2020) Marketing Management (16th ed.). Pearson.
10. Mashika H., Kudrina O., Nurgaliyeva A., Berkova O., Metil T., Novichkov V. (2021). Competitiveness of hotel, restaurant and tourism business: Factors and tools.
11. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2025) 2024 yil uchun turizm rivojlanishi statistik ma'lumotlari. Toshkent: Turizm va madaniy meros vazirligi.
12. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi. (2023) Buxoro viloyatining turizm sektori bo'yicha statistik ma'lumotlar. <https://uzbektourism.uz>.
13. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi. (2025) Buxoro viloyatining turizm sektori bo'yicha statistik ma'lumotlar. <https://uzbektourism.uz>
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2022) "2022 - 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 543-sonli qaror.
15. Pavia N., Stipanovic C., Floričić T. (2013) Sustainable Development in increasing the competitiveness of hotel offer-case study Istra County. Tourism and Southern and Eastern Europe, P. 279-293.

16. Pereira-Moliner J., López-Gamero M.D., Molina-Azorín J.F., Tarí J.J., Pertusa-Ortega E.M. (2021) Sustainability, competitive advantages and performance in the hotel industry: a synergistic relationship.
17. Porter M.E. (2008) On competition. Harvard Business Press.
18. Smith J., Lewis M. (2021) Sustainability in the hospitality industry: Principles of sustainable operations. Routledge.
19. Viskovic K. (2024) From traditional to sustainable service quality: identification of trends in the hotel industry. In economic and social development (Book of proceedings), 111th International scientific conference on economic and social development
20. UNWTO (2024). World Tourism Barometer, January Issue. Madrid: United Nations World Tourism Organization